



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 161 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	



OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yadgarova Ozoda Ibragimovna

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlari hamda ta'lim jarayonidagi psixologik omillar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarda uchraydigan asosiy ijtimoiy-psixologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish mexanizmlari aniqlanadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida ta'lim jarayonida psixologik xizmatni takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, moslashuv, motivatsiya, shaxslararo munosabatlar, ta'lim jarayoni, psixologik xizmat.

Abstract: This article examines the socio-psychological characteristics of university students, focusing on their social adaptation, interpersonal relationships, and the psychological factors that influence the educational process. The study identifies the main socio-psychological problems faced by students, explores their underlying causes, and proposes effective mechanisms for resolving them. Furthermore, a comparative analysis with international experience is presented to highlight strategies for improving psychological support services in higher education institutions.

Key words: students, socio-psychological characteristics, adaptation, motivation, interpersonal relations, educational process, psychological service.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические особенности личности студентов высших учебных заведений, их социальная адаптация, межличностные отношения и психологические факторы, влияющие на образовательный процесс. Особое внимание уделяется анализу основных социально-психологических проблем, возникающих у студентов, причинам их появления и путям их решения. Кроме того, проводится сопоставительный анализ с международным опытом и выделяются эффективные направления совершенствования психологической службы в вузах.

Ключевые слова: студенты, социально-психологические особенности, адаптация, мотивация, межличностные отношения, образовательный процесс, психологическая служба.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonida inson omili, xususan, talabalar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish nihoyatda muhimdir. Chunki oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki kelajak mutaxassislarining ijtimoiy moslashuvi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalik davri nafaqat kasbiy bilimlarni egallash bosqichi, balki shaxsning mustaqil qaror qabul qilishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirish jarayonidir. Shu bois talabalarining psixologik rivojlanishini chuqur o'rganish, ularning ijtimoiy-psixologik muammolarini vaqtida aniqlash va bartaraf etish nafaqat oliy ta'lim tizimining, balki jamiyat taraqqiyotining ham dolzarb masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham ta'kidlanganidek, yoshlarning intellektual salohiyati va psixologik barqarorligini rivojlantirish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsiy kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar oliy ta'limga kirish davrida yangi muhitga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Ularning ayrimlari o'zini baholashda ikkilanishadi, boshqalari esa yangi jamoaga qo'shilishda kommunikativ to'siqlarga uchraydi. Shu jihatdan qaraganda, psixologik xizmatlarning samarali faoliyati talabalar ijtimoiy-psixologik rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Biz Samarqand davlat chet tillar institute, Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi, 2 kurs talabalari bilan birgalikda "Oliy ta'lim talabalari talabalikning dastlabki yillarida qanday qiyinchiliklarga uchraydi va bunda psixolog xizmatini ahamiyati qanday?" degan so'rov ostida nostandart intervyu olib bordik.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlarimizni natijasi shuni ko'rsatdiki deyarli barcha talabalarda oliy ta'limga kirish davrida yangi muhitga moslashish, ota-onasidan uzoqdalik bilan bog'liq sog'inch, maktabdag 40 daqiqalik darsdan oliy ta'limdagi 80 daqiqalik darsga ko'nikish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishar ekan. Bu kabi qiyinchiliklar talabaga stress berishi va talabalik faoliyatiga sezilarli ta'sir o'tkazilishi ham kuzatuvlarimizdan ma'lum bo'ldi. Savolimizni davom qismi sifatida berilgan savolga esa aksariyat talaba bu kabi stressli vaziyatlarda albatta kimgadir murojaat qilishligi ma'lum bo'ldi. Bular qatoriga ota-onaga, psixolog xizmatiga va yaqin do'stlari kirishligi ma'lum bo'ldi. Umuman qiyinchiliklar natijasida kelgan stressli vaziyatlarda hech kimga murojaat qilmayaman deb javob berganj talabalar 100 foizdan 2 foiznui tashkil etdi, qoolgan 98 foiz talaba inson ko'magi asosida stress vaziyatlardan chiqsh kerakligi yomi chiqa olishligi ma'lum bo'ldi. Demak, ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning moslashuv jarayoni, shaxslararo munosabatlari hamda xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bir necha ko'rinishlarda nomayon bo'ladi.

Yosh davri xususiyatlari	Ijtimoiy moslashuv xususiyatlari	Shaxslararo munosabatlar va kommunikativ ko'nikmalarga bog'liq ijtimoiy xususiyatlar.
Talabalik davri inson hayotining eng faol ijtimoiy davrlaridan biridir. Bu davrda shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, o'zini anglash, kasbiy yo'nalish aniqligi shakllanadi [3]. Yoshlar o'z qarashlari, qadriyatlar va hayotiy maqsadlarini izchil shakllantiradi.	Oliy ta'lim muassasasiga kirgan birinchi kurs talabalari uchun yangi ijtimoiy muhitga moslashish katta ahamiyatga ega. Talabalar yangi jamoa, yangi o'quv tizimi va mustaqil ta'limga o'tish jarayonida qator qiyinchiliklarga duch keladi [4]. Shu bois psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samarali ishlashi muhimdir.	Talabalik davrida shaxslararo munosabatlar faol rivojlanadi. Guruh ichidagi muloqot, do'stona aloqalar, jamoada o'z o'rnini topish shaxsning psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5]. Muloqot madaniyati, empatiya va tolerantlik darajasi talabaning ijtimoiy kompetentligini belgilaydi.

Shu berib o'tilgan jadvalimizni tahlil qilsak, oliy ta'lim talabalarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini 3 ta turda namoyon bo'ladi.

Bulardan eng birinchisi bu albatta yosh bilan bog'liq xususiyatlar bo'lib, birinchi kursga kelgan talabaning Yoshi o'sha muhitga moslashish jarayoni asosiy qism bo'lib xizmat qiladi. Sababi maktabni bitirib shu yilni o'zida talabalikka erishgan yosh bilan bir necha yildan keyin talabalikka erishga yoshlar o'rtasida vaziyatga ko'nika olish darajasida farq bo'ladi.

Ikkinchi asosiy xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, talabalar yangi jamoa, yangi o'quv tizimi va mustaqil ta'limga o'tish jarayonida duch kelgan qator qiyinchiliklardan chiqishga ko'mal sifatida o'ylaymizki, oliy ta'limdagi psixologik xizmatni samarali yo'lga qo'yilganligi ahamiyatli.

Uchunchi talaba oliy ta'limga kirgan o'z mutaxassisligi nuqtaiy nazaridan undan kommunikativlik, kirishimlilik va faollik talab etiladi. Bu kabi kasbga doir sifatlarni talabada shakllanishi nafaqat fan o'qituvchilariga balki oliya ta'limda tashkil etilgan psixologik xizmatni samaradorligiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Yuqoridagi berilgan ma'lumotlardan tashqari, oliy ta'lim talabalarida o'quv jarayonidagi psixologik omillar ham mavjud.

Bularga:[8]

Motivatsiya va stress

O'quv jarayonida talabalar turli psixologik holatlarni boshdan kechiradi. Ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi akademik muvaffaqiyatda hal qiluvchi omil sanaladi. Shu bilan birga, baholash tizimi, imtihonlar, ta'lim yuklamasi talabalar orasida stressni kuchaytirishi mumkin.

Intellectual faoliyat va emotsional barqarorlik



Talabalarning bilimlarni o'zlashtirish sifati nafaqat intellektual salohiyatiga, balki emotsional barqarorligiga ham bog'liqdir. Stressga chidamlilik, o'z-o'zini boshqarish, vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi ko'nikmalar ijtimoiy-psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-psixologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar orasida uchraydigan asosiy muammolar: o'qishdagi qiyinchiliklar, yangi muhitga moslashishdagi zo'riqish, kommunikativ muammolar, past o'zini baholash va motivatsiya yetishmasligi bilan bog'liq.

Psixologik xizmatning roli

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning faoliyati talabalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual va guruh maslahatlar o'tkazishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Xalqaro tajriba


Masalan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida talabalarga psixologik yordam ko'rsatishning keng qamrovli tizimlari mavjud. Ular orasida stressni boshqarish dasturlari, mentorlik tizimi va universitet psixologik markazlari muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ham shu kabi tizimlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishning muhim shartidir. Chunki yoshlarning psixologik holati, ijtimoiy faolligi va shaxslararo munosabatlar tizimi ularning ta'lim motivatsiyasi, o'qishga munosabati hamda kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning shaxsiy xususiyatlarini, ehtiyoj va qiziqishlarini, emotsional-intellektual salohiyatini aniqlash, ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, moslashuv jarayonini yengillashtirish oliy ta'lim muassasalarining strategik vazifasiga aylanmoqda. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish faqat didaktik yondashuvlar bilan emas, balki talaba shaxsining psixologik imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, ularning ichki motivatsiyasini shakllantirish va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, diagnostika, maslahat va korreksion dasturlarni xalqaro tajriba asosida yo'lga qo'yish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish natijasida ularning shaxsiy rivojlanish dinamikasini aniqlash, stress va moslashuv muammolarini barvaqt bartaraf etish, ijobiy kommunikativ muhit yaratish hamda jamoaviy o'zaro munosabat madaniyatini shakllantirish mumkin bo'ladi. Natijada yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ruhiy barqarorligi va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati uchun mustahkam psixologik poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. *Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*. Toshkent. 2020 yil.
2. Vigotskiy L.S. Psixologiya razvitiya. – Moskva: Pedagogika, 2006
3. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York: Norton, 1968.
4. Nurmatova Sh. Talabalarning ijtimoiy moslashuvi. – Toshkent: O'zMU nashri, 2019 yil
5. Allport G. The Nature of Prejudice. – Addison-Wesley, 1954.
6. Deci E., Ryan R. Self-Determination Theory. – New York: Guilford Press, 2000.
7. Lazarus R. Stress and Emotion. – Springer, 1999.
8. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.